



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING RO'LI

Norboyev Sarvar Azodovich

Turizm va mehmonxona xo'jaligini boshqarish kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bugungi O'zbekiston kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga xorijiy investitsiyalarni qay yo'sinda jalb qilayotgani va rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalari batafsil yoritilgan.


Kalit so'zlar: Investitsiya, yakka investor, kichik biznes, tadbirkorlik, qimmatli qog'ozlar strategik aloqa.

Rivojlanib botayotgan va ayni damda demokratlashayotgan Yangi O'zbekistonda Prezidentimiz Shvkar Mirziyoyevning tashabbus va takliflari bilan bugungi kunda tadbirkorlikka katta imkoniyatlar yaratib berayotgani hech kimga sir emas. Shu tariqasida aytishimiz mumkinki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ro'lini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya to'g'risidagi qonuniy hujjatlar 199-yilda qabul qilingan bo'lib shu davrgacha zamonga moslashtirib ancha o'zgartirish va qo'shimchalar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasida "Investitsiya to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilishicha, investitsiya bu – bu iqtisodiy samara (daromad, foyda) olish yoki ijobiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yiladigan omonatlar, paylar qimmatli qog'ozlar (aktsiya yoki obligatsiyalar) texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.⁸⁰

Investitsiyalar tavakkalchilik darajasi bo'yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkalchilik deganda investitsiyalarga mutloq yoxud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam bo'ladi, boshqacha aytganda «tavakkalchilik» atamasi kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi. Qo'yilma mablag'lariga foydani mutloq yoxud nisbiy miqdorlarining yoyilishi qanchalik keng bo'lsa tavakkalchilik shunchalik katta bo'ladi va aksincha. Yakka investor eng kam tavakkalchilikka ega bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlardan tortib eng yuqori tavakkalli tovarlarga ega bo'lgan vositalarni keng tanlash imkoniyatiga ega. Albatta, tavakkalchilik ko'p xollarda emitentning, vositachining yoki muayyan moliyaviy vositalarni sotuvchisining sofdilligiga bog'liq. Past tavakkalchilik investitsiyalar muayyan daromad olishni xavfsiz vositasi hisoblanadi. Aksincha, yuqori tavakkalli investitsiyalar xavfli hisoblanadi. Investitsiyani jalb qilish tadbirkorlik va davlat budjetining o'sishiga ham,

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni 30.04.1998.





Davlatda sifatli kadrlarni chiqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatda sifatli kadrlarning oshishi rivojlanish bosqichiga tezroq o'tishga va u bosqichdan chiqishga yordam beradi. Davlatga qancha ko'p investitsiya kirib kelsa davlatning YIM ham ko'pyasi eksport va importi oishadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanonyatning etakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta'minlovchi butun tizimni asosiy bog'lovchilik sifatini o'zlarida namoyon etmoqdalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanonyatning etakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta'minlovchi butun tizimni asosiy bog'lovchilik sifatini o'zlarida namoyon etmoqdalar.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki bugungi kundagi rivojlangan davlatlarning barchasini davlatga katta kompaniyalar tomonida kiritilgan katta investitsiyalar tomonida shu darajaga kelgan. Misol uchun Xitoyni oladigan bo'lsak: Samsung, Windows, Apple va boshqa yirik kompaniyalarning investitsiyalari va ularning davlatda korxonalar va zavodlarini ochishi buy davlatning iqtisodiy o'shishiga ham sabab bo'lgan. Bugun O'zbekiston ham o'sha tajribalarni o'rganish maqsadida Xitoy, Turkiya va boshqa yetakchi rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama strategiya munosabatlarini olib bormoqda.

FOYDALANILGAN AADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlari to'risida»gi onuni. 2000 yil 25 may. g' Q
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni ra batlantirish bora-sidagi o'shimcha chora- g' q tadbirlar to'risida»gi 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli Farmoni. g' Xabarnoma jurnali, 2005 yil, 2-son.
3. Qosimova M.S., Xodiyev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni bosh arish. O' uv o'llanma. -T.: O' ituvchi, 2003. q q q q 5. Lapusta M.G. Predrinimatelstvo. -M.: INFRA-M, 2004.
4. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni 30.04.1998.

